XALQ DEPUTATLARI MIRZACHO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-023-3-51-K/24 Mirzacho‘l tumani

Mirzacho‘l tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2025 yilga belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalariga asosan 2025 yil uchun Mirzacho‘l tumanida belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarni mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2025 yilga yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Mirzacho‘l tumani uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bunda, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, yuqorida 1-ilova bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Tuman xokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Lapasov, tuman moliya bo‘limi Z.Uzbekov, tuman soliq inspeksiyasi (A.Boliqulov)larga 2025 yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror “Mirzacho‘l ovozi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Qaror 2025 yil 1 yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman xokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Lapasov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  B.K.MIRZAKULOV

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-023-3-51-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	**Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun**		**Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun** *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Bogbon MFY	0.90	42 768 000.00	0.77	276.46
2	G‘alaba MFY	1.00	47 520 000.00	0.95	341.09
3	Gulzor MFY	0.90	42 768 000.00	0.72	258.51
4	Dustlik MFY	1.00	47 520 000.00	0.95	341.09
5	Yerjar MFY	1.00	47 520 000.00	0.95	341.09
6	Ipak yuli MFY	0.90	42 768 000.00	0.77	276.46
7	Mirzadala SHFY	1.00	47 520 000.00	0.95	341.09
8	Mustakillik MFY	1.00	47 520 000.00	0.95	341.09
9	Paxtazor SHFY	0.90	42 768 000.00	0.77	276.46
10	Toshkent MFY	0.90	42 768 000.00	0.77	276.46
11	Uzbekiston MFY	0.90	42 768 000.00	0.77	276.46
12	Yangidala MFY	0.90	42 768 000.00	0.77	276.46